



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
VI-QISM**

Google Scholar



**ISSN**

INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
VI-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI .....	12
<b>Abdullayev Azamat Akbar o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА .....	17
<b>Джуманиязова Сабина Михайловна</b>	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH .....	22
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
<b>Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li</b>	
<b>Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li</b>	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
<b>F. Djalilov</b>	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH .....	41
<b>Abdullayev Axror Jaxbarovich</b>	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	47
<b>Махкамова Надира Саидмуратовна</b>	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) .....	55
<b>Ergashev Sherali Erali o'g'li</b>	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR) .....	60
<b>Ergashev Sherali Erali o'g'li</b>	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
<b>Tashmatov Shuhrat Hamrayevich</b>	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI .....	71
<b>Xalimov Shaxboz Xalimovich</b>	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI .....	77
<b>Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna</b>	
<b>To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li</b>	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI .....	83
<b>Hamidova Shahzoda Odiljanovna</b>	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
<b>Sabirova Nodira Komil qizi</b>	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI .....	95
<b>Nabiyeva Zilola Saydulla qizi</b>	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI .....	101
<b>Avazbek Xalbekov</b>	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC.....	108
<b>Musaeva Shoira Azimovna</b>	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	116
<b>Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich</b>	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	122
<b>Анвар Аллабергенов</b>	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
<b>Allanazarova B.K.</b>	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
<b>Azimova Muxlisa Alisherbekovna</b>	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
<b>Atamuratova Gulrux Muzafarovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	145
<b>Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li</b>	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
<b>Razikov Otabek Rustamovich</b>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
<b>Matkabalova Dilorom Xalilullayevna</b>	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida) .....	165
<b>Bekjanov Dilmurod Yuldashevich</b>	
<b>Narmetova Dilafruz Azamatovna</b>	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
<b>Ахмедова Шахноза Козим кизи</b>	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI .....	175
<b>Elbekov Jasur Ergash o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	181
<b>Sharipova Bibijon Baxtiyorovna</b>	



ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ .....	189
<b>Джусупов Кубанычбек</b>	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	196
<b>Shamuratov Shahzod Janibek o'g'li</b>	
SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH .....	200
<b>Eshov Sherko'zi Asatulloevich</b>	
THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES .....	205
<b>Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna</b>	
DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS .....	209
<b>Khanifakhon Solikhova</b>	
BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida).....	213
<b>Z. Sh. Matniyozova</b>	
JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH VA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI PROGNOZLASH .....	218
<b>Umirova Gulmira Shodiboy qizi</b>	
ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НИЗКОУГЛЕРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	224
<b>Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович</b>	
KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI .....	233
<b>Komilova Guli Bagandik qizi</b>	



# KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Komilova Guli Bagandik qizi**

“TIQXMMI” MTU “Buxgalteriya hisobi va audit” yo'nalishi

Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich 209-guruh talabasi

E-mail: gulig2078@gmail.com

**Ilmiy rahbar: Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li — “TIQXMMI” MTU “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini mudiri, i.f.f.d. (PhD), dotsent**

E-mail: xurshid7830909@gmail.com

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda korporativ barqarorlikni ta'minlash masalasi korxonalar faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biriga aylanmoqda. Mazkur maqolada korporativ barqarorlikni rivojlantirishda ekologik javobgarlikning o'rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Ekologik javobgarlik korxonalarining atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'sirini nazorat qilish, ekologik xavflarni kamaytirish, manfaatdor tomonlar oldidagi hisobdorlikni ta'minlash hamda korporativ shaffoflikni oshirishning muhim vositasi sifatida baholangan. Tadqiqot davomida xalqaro ilmiy adabiyotlar, ESG hisobotlari va professional tashkilotlar ma'lumotlari tahlil qilinib, ekologik axborotlarning ishonchiligi, ularni oshkor etish sifati hamda korporativ boshqaruv tizimidagi o'rni o'rganilgan. Tahlillar natijasida ekologik javobgarlikning samarali yo'lga qo'yilishi korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi, moliyaviy barqarorligi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlangan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston korxonalarida ekologik javobgarlikni kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologik javobgarlik, korporativ barqarorlik, barqaror rivojlanish, ekologik axborotlar, ESG hisoboti, korporativ shaffoflik, ekologik xavf, manfaatdor tomonlar, ekologik boshqaruv.

**Abstract.** Currently, ensuring corporate sustainability is becoming one of the important criteria for assessing enterprise performance. This article examines the role and importance of environmental responsibility in the development of corporate sustainability. Environmental responsibility is considered an important tool for controlling the environmental impact of enterprises, reducing environmental risks, ensuring accountability to stakeholders, and increasing corporate transparency. During the study, international scientific literature, ESG reports, and data from professional organizations were analyzed, and the reliability of environmental information, the quality of its disclosure, and its role in the corporate governance system were studied. The analysis revealed that the effective implementation of environmental responsibility contributes to the long-term sustainable development, financial stability, and strengthening of public trust in enterprises. The article also develops practical recommendations for strengthening environmental responsibility in enterprises of Uzbekistan.

**Keywords:** environmental responsibility, corporate sustainability, sustainable development, environmental information, ESG reporting, corporate transparency, environmental risk, stakeholders, environmental management.

**Аннотация.** В настоящее время обеспечение корпоративной устойчивости становится одним из важных критериев оценки деятельности предприятий. В данной статье исследованы роль и значение экологической ответственности в развитии корпоративной устойчивости. Экологическая ответственность рассматривается как важный инструмент контроля воздействия предприятий на окружающую среду, снижения экологических рисков, обеспечения подотчётности



перед заинтересованными сторонами, а также повышения корпоративной прозрачности. В ходе исследования были проанализированы международная научная литература, ESG-отчёты и данные профессиональных организаций, изучены достоверность экологической информации, качество её раскрытия и место в системе корпоративного управления. По результатам анализа установлено, что эффективная организация экологической ответственности способствует долгосрочному устойчивому развитию предприятий, их финансовой устойчивости и укреплению общественного доверия. Также в статье разработаны практические предложения по усилению экологической ответственности на предприятиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** экологическая ответственность, корпоративная устойчивость, устойчивое развитие, экологическая информация, ESG-отчётность, корпоративная прозрачность, экологический риск, заинтересованные стороны, экологическое управление.

## KIRISH

Hozirgi davrda korporativ barqarorlik masalasi jahon iqtisodiyotining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, sanoat chiqindilarining ortishi va ekologik muammolarning kuchayishi korxonalar faoliyatiga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Endilikda korxonalar nafaqat moliyaviy natijalari, balki atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'siri, ekologik xavflarni boshqarish darajasi va jamiyat oldidagi mas'uliyati bilan ham baholanmoqda. Shu jihatdan ekologik javobgarlik korporativ barqarorlikni ta'minlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Amaliyotda ko'plab korxonalar ekologik faoliyatga oid ma'lumotlarni e'lon qilmoqda. Biroq bunday hisobotlar har doim ham korxonaning haqiqiy ekologik holatini to'liq aks ettirmaydi. Ayrim hollarda korxonalar ijobiy ekologik tashabbuslarni kengroq yoritib, mavjud ekologik xavf va muammoli jihatlarni yetarli darajada yoritmasligi mumkin. Shuning uchun ekologik javobgarlikni faqat hisobot e'lon qilish bilan cheklab bo'lmaydi, bunda axborotlarning haqqoniyligi, to'liqligi va shaffofligi ham muhim ahamiyatga ega.

KPMGning 2024-yildagi hisobotiga ko'ra, dunyodagi 250 ta eng yirik kompaniyaning 96 foizi barqaror rivojlanish bo'yicha hisobotlarni e'lon qiladi, milliy darajadagi eng yirik kompaniyalar orasida esa bu ko'rsatkich 79 foizni tashkil etadi<sup>1</sup>. Bu holat korporativ hisobotlarda ekologik axborotlarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq hisobotlar sonining ko'payishi ularning sifati va ishonchligini avtomatik ravishda ta'minlamaydi. Aksincha, ekologik axborot hajmining ortishi uni tekshirish, baholash va tahlil qilish zaruratini kuchaytiradi.

Ilmiy tadqiqotlarda ham ekologik javobgarlik korporativ barqarorlikning muhim omili sifatida baholanadi. Michelin, Pilonato va Ricceri korporativ hisobotlarning sifati va shaffofligi manfaatdor tomonlar oldidagi hisobdorlikni kuchaytirishini asoslab bergan<sup>2</sup>. Cho, Michelin va Patten esa barqaror rivojlanish hisobotlarida ayrim korxonalar ekologik faoliyat natijalarini bir tomonlama yoritishi mumkinligini ta'kidlab, ekologik axborotlarning ishonchligini oshirish zarurligini qayd etgan<sup>3</sup>.

Ekologik javobgarlik faqat ekologik talab va me'yorlarga rioya qilishdan iborat emas. U korxonaning boshqaruv tizimi, ichki nazorati, ekologik axborotlarni shakllantirish va manfaatdor tomonlarga yetkazish jarayonlari bilan bog'liq bo'lishi lozim. Shu sababli mazkur maqolaning maqsadi korporativ barqarorlikni rivojlantirishda ekologik javobgarlikning o'rni va ahamiyatini tahlil qilish hamda uni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik javobgarlik masalasi so'nggi yillarda korporativ barqarorlik bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, korxonalarning ekologik faoliyati to'g'risidagi axborotlarni oshkor etishi, manfaatdor tomonlar oldidagi hisobdorligi hamda ekologik ko'rsatkichlarning ishonchligi barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillari sifatida e'tirof etilmoqda.

Michelin, Pilonato va Ricceri korporativ ijtimoiy javobgarlik hisobotlari sifatini tadqiq qilib, hisobotlarning shaffofligi va sifati manfaatdor tomonlar bilan o'zaro ishonchni mustahkamlashini ta'kidlaganlar<sup>4</sup>. Olimlarning

1 KPMG. *Survey of Sustainability Reporting 2024*. - Amsterdam: KPMG International, 2024. - P. 12-15.

2 Michelin G., Pilonato S., Ricceri F. *CSR Reporting Practices and the Quality of Disclosure*. - Critical Perspectives on Accounting, 2015. - Vol. 33. - P. 59-78.

3 Cho C.H., Michelin G., Patten D.M. *Impression Management in Sustainability Reports*. - Accounting, Organizations and Society, 2012. - Vol. 37. - P. 14-27.

4 Michelin G., Pilonato S., Ricceri F. *CSR Reporting Practices and the Quality of Disclosure*. - Critical Perspectives on Accounting, 2015. - Vol. 33. - P. 59-78.



fikricha, korxonalar tomonidan taqdim etilayotgan ekologik axborotlar qanchalik sifatli va tushunarli bo'lsa, manfaatdor tomonlarning qaror qabul qilish jarayoni shunchalik samarali bo'ladi. Mazkur tadqiqot ekologik javobgarlikni faqat axborotlarni oshkor etish bilan cheklamasdan, ularning sifati va foydaliligini ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

Cho, Michelin va Patten tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa ayrim korxonalar barqaror rivojlanish hisobotlarida ekologik faoliyat natijalarini bir tomonlama yoritishi mumkinligi qayd etilgan<sup>5</sup>. Olimlar ushbu holatni "greenwashing" deb izohlaydilar. Ularning xulosalariga ko'ra, ekologik axborotlarning ishonchliligini ta'minlash uchun mustaqil nazorat va baholash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Ushbu yondashuv ekologik javobgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida axborotlarning haqqoniyligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratadi.

KPMG tomonidan e'lon qilingan Survey of Sustainability Reporting 2024 hisobotida dunyoning 250 ta eng yirik kompaniyasining 96 foizi barqaror rivojlanish hisobotlarini e'lon qilishi qayd etilgan<sup>6</sup>. Mazkur ko'rsatkich korporativ hisobot tizimida ekologik va ijtimoiy axborotlarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq hisobotlar sonining ortishi ularning ishonchliligi masalasini ham dolzarb qilib qo'yimoqda. Shu sababli ekologik javobgarlikni kuchaytirish korporativ shaffoflikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, IFRS Foundation tomonidan ishlab chiqilgan IFRS S1 va IFRS S2 standartlari korxonalardan barqaror rivojlanish va iqlim bilan bog'liq xavflar bo'yicha batafsil axborotlarni oshkor etishni talab etadi<sup>7</sup>. Mazkur standartlar korxonalarda ekologik javobgarlikni yangi bosqichga olib chiqib, ekologik axborotlarning taqqoslanishi va ishonchliligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korporativ barqarorlikni ta'minlashda ekologik javobgarlik nafaqat ekologik me'yorlarga rioya qilish, balki sifatli ekologik axborotlarni shakllantirish, ularni shaffof ravishda oshkor etish hamda manfaatdor tomonlar oldidagi hisobdorlikni ta'minlash bilan ham bevosita bog'liqdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ekologik javobgarlikning korporativ barqarorlikdagi o'rnini ochib berish uchun sifat tahliliga asoslangan yondashuv tanlandi. Bunday yondashuv mavzuni faqat raqamlar orqali emas, balki ilmiy qarashlar, xalqaro tajriba va amaliy jarayonlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli tadqiqotda ekologik javobgarlik, ESG hisobotlari, ekologik axborotlarni oshkor etish va korporativ shaffoflikka oid ilmiy maqolalar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi.

Tahlil jarayonida qiyosiy tahlil, manbaviy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va grafik talqin usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil orqali turli tadqiqotchilarning ekologik javobgarlik haqidagi qarashlari solishtirildi. Manbaviy tahlil esa KPMG, IFRS Foundation va boshqa xalqaro tashkilotlar hisobotlarida keltirilgan ma'lumotlarni maqola mavzusi bilan bog'lashga yordam berdi.

Tadqiqot natijasida ekologik javobgarlik korxonalar uchun faqat ekologik talablarni bajarish vositasi emas, balki shaffof boshqaruv, ishonchli hisobot va uzoq muddatli barqaror faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari ekologik javobgarlik korporativ barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda ekologik axborotlarni muntazam shakllantirish va oshkor etish amaliyotining kengayishi korporativ boshqaruv tizimida ekologik omillarning ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi.

KPMGning 2024-yildagi hisobotiga ko'ra, dunyodagi 250 ta eng yirik kompaniyaning 96 foizi barqaror rivojlanish hisobotlarini e'lon qilmoqda, milliy darajadagi eng yirik kompaniyalar orasida esa ushbu ko'rsatkich 79 foizni tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlar korporativ hisobot tizimida ekologik axborotlarning tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

5 Cho C.H., Michelin G., Patten D.M. *Impression Management in Sustainability Reports*. - Accounting, Organizations and Society, 2012. - Vol. 37. - P. 14-27.

6 KPMG. *Survey of Sustainability Reporting 2024*. - Amsterdam: KPMG International, 2024. - P. 12-15.

7 IFRS Foundation. *IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information*. - London: IFRS Foundation, 2023; IFRS Foundation. *IFRS S2 Climate-related Disclosures*. - London: IFRS Foundation, 2023.




1-jadval

Korporativ barqarorlikni rivojlantirishda ekologik javobgarlikning asosiy yo'nalishlari<sup>8</sup>

Yo'nalish	Mavjud muammo	Ekologik javobgarlik mexanizmi	Kutilayotgan natija
Ekologik axborotlarni oshkor etish	Axborotlar to'liq ochib berilmasligi	ESG va barqarorlik hisobotlarini shakllantirish	Korporativ shaffoflik oshadi
Ekologik xavflarni boshqarish	Ekologik xavflarni aniqlash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi	Ekologik xavflarni muntazam baholash	Salbiy ta'sir kamayadi
Ichki nazorat	Ekologik jarayonlar nazoratini yanada kuchaytirish zarurati	Ichki ekologik nazorat tizimini kuchaytirish	Hisobdorlik darajasi ortadi
Resurslardan foydalanish	Energiya va suv sarfi yuqori	Resurs tejamkorligi ko'rsatkichlarini monitoring qilish	Xarajatlar qisqaradi
Manfaatdor tomonlar bilan aloqalar	Jamoatchilik bilan axborot almashinuvi yetarli darajada emas	Ekologik axborotlarni ochiq taqdim etish	Ishonch mustahkamlanadi

Jadval natijalari ekologik javobgarlik korxonalarining faqat ekologik talablarni bajarishi bilan cheklanib qolmasligini ko'rsatadi. Aksincha, ekologik javobgarlik korporativ boshqaruv, ichki nazorat, resurslardan foydalanish samaradorligi va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarni ham qamrab oladi. Shu sababli ekologik javobgarlikni korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish korxonalarining uzoq muddatli barqaror faoliyat yuritishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. Yirik kompaniyalarda barqaror rivojlanish hisobotlarini e'lon qilish darajasi, 2024-yil (%)<sup>9</sup>

1-rasm ma'lumotlari yirik kompaniyalar orasida ekologik va ijtimoiy axborotlarni oshkor etish amaliyoti keng tarqalganligini ko'rsatadi. Biroq muallif fikricha, hisobotlarning soni ortishi har doim ham ekologik javobgarlikning yuqori darajada shakllanganligini anglatmaydi. Chunki ayrim korxonalar ekologik faoliyat bo'yicha faqat ijobiy natijalarni yoritishga intilishi mumkin. Shu sababli ekologik axborotlarning ishonchligi, haqqoniyliги va taqqoslanishini ta'minlash korporativ barqarorlikning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

<sup>8</sup> Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>9</sup> Manba: KPMG. Survey of Sustainability Reporting 2024. – Amsterdam: KPMG International, 2024. – P. 12–15.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik javobgarlik korporativ barqarorlikni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Korxonada o'z faoliyatida ekologik xavflarni oldindan aniqlashi, tabiiy resurslardan foydalanishni nazorat qilishi, atrof-muhitga ta'siri bo'yicha ishonchli va tushunarli axborot taqdim etishi uning uzoq muddatli barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu bois ekologik javobgarlikni faqat ekologik me'yorlarga rioya qilish sifatida emas, balki korporativ boshqaruv, ichki nazorat, hisobdorlik va ochiq hisobot berish tizimi bilan bog'liq kengroq tushuncha sifatida baholash lozim.

Maqolada ko'rib chiqilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda yirik kompaniyalar orasida barqaror rivojlanish hisobotlarini e'lon qilish amaliyoti kengayib bormoqda. Biroq hisobotlarning mavjudligi har doim ham ekologik javobgarlik yuqori darajada shakllanganini anglatmaydi. Muhim masala — hisobotlarda berilayotgan ekologik axborotlarning haqqoniyligi, to'liqligi, taqqoslanishi va manfaatdor tomonlar uchun amaliy foyda berishidir. Agar ekologik ma'lumotlar bir tomonlama yoritilsa, bu korporativ shaffoflik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va manfaatdor tomonlar ishonchini pasaytirishi mumkin.

Ekologik javobgarlik korxonaning kundalik boshqaruv jarayoniga kiritilgandagina real natija beradi. Buning uchun ekologik xavflarni baholash, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik xarajatlarni alohida hisobga olish va ESG ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilish zarur. Shuningdek, ekologik axborotlarning ishonchligini oshirish uchun ichki nazorat va mustaqil tekshiruv mexanizmlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston korxonalari uchun ekologik javobgarlikni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki korxonalar faoliyatida barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish nafaqat atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi, balki boshqaruv sifatini yaxshilaydi, jamoatchilik ishonchini oshiradi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. Shu sababli ekologik javobgarlik korporativ strategiyaning ajralmas qismi sifatida shakllantirilishi lozim.

Umuman olganda, ekologik javobgarlik korxonalarining barqaror rivojlanish yo'lida faqat tashqi talab emas, balki ichki ehtiyoj sifatida qaralishi kerak. Korxonada ekologik axborotni to'g'ri shakllantirib, uni ochiq va ishonchli tarzda taqdim eta olsa, bu nafaqat ekologik boshqaruvni, balki umumiy korporativ barqarorlikni ham mustahkamlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. KPMG International. **The Move to Mandatory Reporting: Survey of Sustainability Reporting 2024**. — Amsterdam: KPMG International, 2024. — URL: <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/sg/pdf/2024/11/the-move-to-mandatory-reporting-report.pdf>
2. IFAC, AICPA & CIMA. **The State of Play: Sustainability Disclosure & Assurance: Five-Year Trends & Analysis, 2019–2023**. — New York: International Federation of Accountants, 2025. — URL: <https://www.ifac.org/knowledge-gateway/audit-assurance/publications/state-play-sustainability-disclosure-and-assurance>
3. Michelin G., Pilonato S., Ricceri F. **CSR Reporting Practices and the Quality of Disclosure: An Empirical Analysis** // *Critical Perspectives on Accounting*. — 2015. — Vol. 33. — P. 59–78. — DOI: <https://doi.org/10.1016/j.cpa.2014.10.003>
4. Cho C.H., Michelin G., Patten D.M. **Impression Management in Sustainability Reports: An Empirical Investigation of the Use of Graphs** // *Accounting and the Public Interest*. — 2012. — Vol. 12, No. 1. — P. 16–37. — DOI: <https://doi.org/10.2308/apin-10249>
5. Cho C.H., Michelin G., Patten D.M. **Enhancement and Obfuscation through the Use of Graphs in Sustainability Reports: An International Comparison** // *Sustainability Accounting, Management and Policy Journal*. — 2012. — Vol. 3, No. 1. — P. 74–88. — DOI: <https://doi.org/10.1108/20408021211223561>
6. IFRS Foundation. **IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information**. — London: IFRS Foundation, 2023. — URL: <https://www.ifrs.org/issued-standards/ifrs-sustainability-standards-navigator/ifrs-s1-general-requirements/>
7. IFRS Foundation. **IFRS S2 Climate-related Disclosures**. — London: IFRS Foundation, 2023. — URL: <https://www.ifrs.org/issued-standards/ifrs-sustainability-standards-navigator/ifrs-s2-climate-related-disclosures/>
8. Global Reporting Initiative. **GRI 101: Biodiversity 2024**. — Amsterdam: Global Reporting Initiative, 2024. — URL: <https://www.globalreporting.org/publications/documents/english/gri-101-biodiversity-2024-english/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>